Umumta'lim maktablarida chet tili o'qitishda raqamli platformalarni integratsiya qilishning texnologiyasi va samaradorlik modeli	658
Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi	
Autistik spektri buzilishi bo'lgan bolalarda sensor-motor korreksiya asosida psixomotor rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tizimi	664
Usmanova Nilufar Ilhom qizi	
Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi profilaktikasini augmented reality texnologiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish	670
Xo'jamberdiyev O'tkirbek Egamberdi o'g'li	
Ecological Education in General Education Schools.....	675
Xojanov Baxadir Keunimjaevich	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining volontyorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlarlari	678
Xushnazarova Ma'mura Nodirovna	
Xalq qo'shiqlari orqali 6–7-sinf o'quvchilarida adabiy- nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish	681
Yuldasheva Noila Ravshan qizi	
Креативное мышление: на пути к совершенствованию	685
Абдулбориева Мехруза Анвар қизи	
Зарубежный опыт в профессиональном образовании: тенденции и перспективы.....	689
Азизова Асаль Руслановна	



Muloqot turlari klassifikatsiyasi xususida shaxslararo muloqot madaniyati	693
Urakov Sherzod Raxmonovich, Usarov Orifjon Olimovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirish omillari va yo'nalishlari	697
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Didaktik intellektual o'yinlar vositasida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi	701
Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna	
Tanqidiy fikrlash va informatika ta'limining nazariy asoslari	705
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna	
Internet qaramligi natijasida yuzaga keluvchi zamonaviy Maugli sindromining psixologik xususiyatlari va davolash usullari	709
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Ismlarning o'ziga xosligi va badiiy onomastikadagi o'rni	713
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda o'qib tushunishning hamohangligi	717
Shermo'min Yarmatov	
Raqamli zamon va oila: ijtimoiy tarmoqlarning nikoh barqarorligiga ta'siri	720
Nazokat Xudoyqulova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda elektron korpuslar, KWIC, Word Sketch va Konkordans usullarini qo'llash	725
Amonova Mahbuba Olimovna	
Bo'lajak sport o'qituvchilarining emotsional intellekt va pedagogik kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	728
Ibragimov Aziz Tulkunovich	
Optik-mnestik afaziyada olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni	732
Otajonova Dilrabo Ramil qizi	
Yoshlar salomatligini saqlashning pedagogik va ekologik aspektlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi	735
Tadjibayeva Gavxaroy Ismailovna	
Taekvondochilarning dastlabki tayyorgarlik jarayonida trenirovka mashg'ulotini tuzishning zamonaviy tasavvurlari	739
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	



TAEKVONDOCHILARNING DASTLABKI TAYYORGARLIK JARAYONIDA TRENIROVKA MASHG'ULOTINI TUZISHNING ZAMONAVIY TASAVVURLARI

Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Taekwondo, karate nazariyasi va uslubiyati kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy sog'lom avlodni shakllantirishning asosiy vositalari hamda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport orqali aholini sog'lomlashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, bolalar sportini taraqqiy ettirish, sport inshootlarini kengaytirish va ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, sportning barcha sohalarini bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, sportchilarning huquqlarini muhofaza etish, sport orqali O'zbekiston Respublikasini butun dunyoga tanitish borasida amalga oshirilayotgan muhim ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sog'lom avlod, taekwondo, texnik-taktik tayyorgarlik, musobaqa, barkamol avlod.

Abstract: The article analyzes the main means of shaping a physically healthy generation, as well as the initiatives undertaken in Uzbekistan to improve public health through physical education and sports, develop mass sports, promote children's sports, expand and ensure the effective functioning of sports facilities, train, retrain, and enhance the qualifications of specialists in all fields of sports, protect athletes' rights, and promote the international recognition of the Republic of Uzbekistan through sports.

Key words: healthy generation, taekwondo, technical and tactical training, competition, well-rounded generation.

Аннотация: В статье рассматриваются основные средства формирования физически здорового поколения, а также анализируются мероприятия по оздоровлению населения через физическую культуру и спорт, развитию массового спорта, продвижению детского спорта, расширению и эффективному функционированию спортивных сооружений, подготовке, переподготовке и повышению квалификации кадров во всех сферах спорта, защите прав спортсменов и популяризации Республики Узбекистан в мире через спорт.

Ключевые слова: здоровое поколение, тхэквондо, техническая и тактическая подготовка, соревнование, гармоничное поколение.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik qo'lga kiritilgach, ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, e'tiqodi sog'lom, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirish, tarbiyalash va komil inson qilib shakllantirish masalasi davlatimiz siyosatining, hukumatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, hukumatimiz tomonidan chiqarilgan mazkur masalaga oid Farmoyish, Qaror va Davlat dasturlari sog'lom avlod g'oyasini bosqichma-bosqich umumxalq harakatiga aylanib borayotganidan dalolatdir ^[1].

Tadqiqot maqsadi dastlabki tayyorgarlik bosqichida taekvondochilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklarining vositalari va usullarini aniqlash va tajribada asoslash.

Ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sport hisoblanadi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport orqali aholini sog'lomlashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, bolalar sportini taraqqiy ettirish, sport inshootlarini kengaytirish va samarali faoliyat qo'rsatishini ta'minlash, sportning barcha sohalarini bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, sportchilarning huquqlarini muhofaza etish, sport orqali O'zbekiston Respublikasi butun dunyoga tanitish borasidagi ham muhim ishlar qilindi.

Mamlakatimizda faol rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri taekwondo hisoblanadi. Yosh taekvondochilar sport mahoratining muvaffaqiyatli takomillashuvini ta'minlovchi yo'llarni izlab topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Sportchilarni ko'p yillik tayyorlashning umumiy qabul qilingan konsepsiyasi, yangi shug'ullanuvchidan to xalqaro klassli usta darajasiga qadar tayyorlashni, rivojlanishining ma'lum bir xususiyatlariga va yo'llariga ega

bo'lgan murakkab, o'ziga xos tizim sifatidagi ma'lum qonuniyatlarga bo'ysinadigan yagona jarayon sifatida tushunishni nazarda tutadi.

Ko'pchilik sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki fikrimiz dalilidir. Har xil sport turlari bo'yicha O'zbekiston terma jamoalari alohida jamoa sifatida Olimpiya, Osiyo o'yinlarida va jahon chempionatlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sinovdan o'tuvchilarning jismoniy tayyorgarliklari darajasi to'g'risida, muallif tomonidan maxsus yo'riqnoma berilgan yordamchilarni jalb qilish bilan, tajribaning boshida va yakunida standart sharoitlarda jismoniy qobiliyatlarini testlash o'tkazildi. Testlashdan oldin maxsus qizib olish mashqi o'tkazildi. Testlashda har bir sinovdan o'tuvchiga sinov urinishlari berildi. Ikki ta urinishlarda eng yaxshi natija qayta ishlashga kiritildi. Testlarni tanlash va qo'llash paytida I.V.Aulik; V.M.Zatsiorskiy; M.A.Godik tomonidan berilgan tavsiyalardan foydalanildi [8, 9].

TADQIQOTLARNING METODOLOGIYASI

Qo'yilgan vazifalarni echish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: adabiyotlardagi manbalarni va hujjatli materiallarni, ilg'or va shaxsiy ish tajribalarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish; pedagogik kuzatishlar; testlash, tabiiy pedagogik tajriba, matematik – statistik tahlil.

1. Adabiyotlardagi manbalarni va hujjatli materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, sport nazariyasi va metodikasi sohasidagi mutaxassislarining qarashlaridagi hamda bir-biriga bog'liq fanlarni yosh taekvondochilarni tayyorlash jarayonini tuzishga tegishli muammoga qarashlaridagi kelishilganliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Mazkur yoshdagi sportchilar bilan shug'ullanish metodikasining, o'quv-trenirovka mashg'ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashning har xil vositalarini qo'llashning xususiyatlari o'rganildi. Ushbu masalalar bo'yicha ishlarni o'rganish muammoning holatini aniqlash imkonini berdi.
2. Pedagogik kuzatishlar. Mazkur usul muammoli holatni aniqlashtirish, tadqiqotning ishchi taxminini shakllantirish, tajriba dasturini ishlab chiqish va mukammallashtirish maqsadida qo'llandi.

Qisman pedagogik kuzatishlarning mavzulari quyidagilar hisoblandi: yosh taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarliklarini tashkil qilish, strukturasi, mazmuni va metodikasi; qo'yilgan vazifalarni shug'ullanuvchilarning yoshiga oid xususiyatlariga va imkoniyatlariga mos kelishi; o'quv-trenirovka mashg'ulotlari vositalarining xilma xilligi va noyoblighi, ularni qo'llash samaradorligining darajasi va qo'yilgan vazifalarga mos kelishi; o'quv-trenirovka mashg'ulotlari jarayonida o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish va qobiliyatlarni rivojlantirish usullarining xilma xilligi va qo'llashning maqsadga muvofiqligi, ularni guruhlarining tayyorgarlik darajalariga mos kelishi; o'quv-trenirovka mashg'ulotlari jarayonida yuklamalarni normalashtirish va nazorat qilish. Bevosita kuzatishdan tashqari videoyozuv va tasvirni ko'rsatadigan apparaturani qo'llash bilan tajribada ko'rinadigan kuzatishlar ham qo'llanildi, "HITACHI VH-238 Ye (AV)" videokameralari, "JVC HR-D521 YeE" videomagnitofoni.

3. Testlash. Nazorat va tajriba guruhlarini yosh taekvondochilarning jismoniy, texnik, taktik tayyorgarliklari darajalarini o'sishi dinamikasidagi an'anani aniqlash uchun hamda ularning kompleks tayyorgarliklari darajalariga tajriba dasturini ta'sirini baholash uchun pedagogik tajriba boshlanishiga qadar, majmuaviy nazorat dasturi ishlab chiqildi.

Nazorat va tajriba guruhlarini yosh taekvondochilarni tayyorgarliklarining (texnik, taktik) boshqa tomonlarini yakuniy darajalarini testlash, muallif tomonidan maxsus yo'riqnoma berilgan yordamchilarni jalb qilish bilan, tajribaning boshida va yakunida standart sharoitlarda o'tkazildi.

Kompleks tayyorgarlik darajalarini aniqlash va taqqoslash, nazorat va tajriba guruhlarini sportchilarni o'rtasida sparringlar jarayonida muallif tomonidan maxsus yo'riqnoma berilgan yordamchilarni jalb qilish bilan, tajribaning boshida va yakunida standart sharoitlarda amalga oshirildi.

4. Tabiiy pedagogik tajriba. Ushbu tadqiqot usuli yosh taekvondochilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklarini shakllantirish bo'yicha maxsus ishlab chiqarilgan tajriba dasturi mazmunining samaradorligini tekshirish maqsadida qo'llanildi.

Pedagogik tajriba tabiiy sharoitlarda o'tkazildi. Tajribada ikkinchi yil o'qiyotgan dastlabki tayyorgarlik guruhi sportchilari ishtirok etishdi (n=15 – tajriba guruhi va n=15 – guruhi). Ushbu sportchilar, o'qishning birinchi yilida tadqiqot muallifining rahbarligi ostida shug'ullanishdi. Trenirovka jarayoni sog'lomlashtiruvchi va umumiy mustahkamlovchi xarakterga ega bo'ldi. Trenirovkalar haftasiga 3 marta 45 minutdan o'tkazildi. Umumiy tayyorgarlik mashqlari bilan harakatli o'yinlarning nisbati 1:1 bo'ldi (ushbu yoshda an'anaviy qo'llaniladi).



Nazorat va tajriba guruhidagi sinovdan o'tuvchilar yoshlari bo'yicha analogik bo'ldi, tajriba o'tkazilgunicha jismoniy tayyorgarliklari ko'rsatkchilarida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Nazorat guruhidagi yosh taekvondochilar qat'iy reglamentlangan mashqlar usuli rejimida bajariladigan umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mashqlarini, individual va jamoaviy harakatli o'yinlarni o'z ichiga olgan, umumiy qabul qilingan metodika bo'yicha shug'ullanishdi. Umumiy tayyorgarlik bosqichida, qat'iy reglamentlangan mashqlar usuli rejimida bajariladigan umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mashqlari, individual va jamoaviy harakatli o'yinlari quyidagi nisbatda: 45% - 45% - 10%, maxsus tayyorgarlik bosqichida quyidagi nisbatda: 35% - 50% - 15%, musobaqa bosqichida quyidagi nisbatda: 20% - 60% - 20% qo'llanildi.

Tajriba guruhidagi yosh taekvondochilarda jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklarini maqsadga yo'naltirilgan shakllantirish uchun pedagogik ta'sirlar tizimi qo'llanildi, u, o'z ichiga quyidagilarni olgan:

- 1) tayyorgarlikning umumlashtirilgan sifat modellari bilan mos ravishda shakllantirilgan jismoniy, texnik, taktik tayyorgarliklari bo'yicha pedagogik vazifalar;
- 2) ularni hal qilish vositalari (umumiy tayyorgarlik mashqlari mashqlari, maxsus tayyorgarlik mashqlari, maxsus tayyorgarlik mashqlari, modifikatsiyalashtirilgan xarakatli o'yinlar) umumiy tayyorgarlik bosqichida quyidagi nisbatda: 45% - 33% - 22%, maxsus tayyorgarlik bosqichida quyidagi nisbatda: 33% - 22% - 45%, musobaqa bosqichida quyidagi nisbatda: 10% - 10% - 80% qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdiqlanadi. Qo'llanilgan tadqiqot uslublari majmuasi tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mos keladi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchiligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi bilan izodlanadi. Olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchiligi, aniq hamda tadqiqot va pedagogik uslublarning qo'llanilganligi bilan ta'minlangan. Tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari qo'llanilganligi bilan belgilanadi [4, 6].

Sport yakkakurashlari nafaqat yuqori koordinatsiyalangan mashqlarga boy, balki ushbu mashqlarni o'zgaruvchan statik va dinamik sharoitlarda bajarish zarur. Ushbu sharoitlar kutilmaganda yuzaga keladi va ularning paydo bo'lishida adekvat reaksiya qilish uchun sensorli korreksiyalar mexanizmining yuqori sifatda bo'lishini talab qiladi. Lekin, bu ham kamlik qiladi. Har qanday qoidalar paytida, qarama-qarshilik ko'rsatish vaktining o'zi, psixostress xarakterdagi to'siqlarni kiritadi, bu, uni eng murakkab-koordinatsiyali, situativ va psixostressli sportga aylantiradi.

Ushbu sharoitlarda, hozirda ommaviy tusga ega bo'lgan erta ixtisoslashuv, kun tartibiga bolalarning murakkab xujum va himoya harakatlarini amalga oshirishga kobiliyatligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni qo'yadi, shu vaqtning o'zida, ushbu yoshda, ularda ixtiyoriy diqqatni konsentratsiya qilishga qobiliyati ham savol tug'diradi. Ushbu yoshda, harakatlanuvchi ob'ektga adekvat murakkab reaksiyani shakllantirish muammosi murakkab hisoblanadi, bu sport yakkakurashlarida o'ta muhim. Shundan kelib chiqqan holda, yakkakurashlar bilan shug'ullanishni boshlash uchun ushbu yosh ancha oddiy hisoblanadi, deb taxmin qilish mumkin.

Yosh taekvondochilarni tayyorlash makrosiklidagi mashg'ulot jarayoni vositalarining nisbatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, sport taekvondosida tayyorgarlik turlarini tasavvur qilish tartibining o'zi, bizning nazarimizda, birlamchi va dominantlik to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Taekvondo bo'yicha adabiyotlarda tayyorgarlik turlari quyidagi tarzda keltirilgan:

- taekvondochining jismoniy tayyorgarligi;
- taekvondochining maxsus jismoniy tayyorgarligi;
- taekvondochining texnik tayyorgarligi;
- taekvondochining taktik tayyorgarligi;
- taekvondochining psixologik tayyorgarligi;
- taekvondochining nazariy tayyorgarligi.

Agarda, bolalarning asosiy massasi jangovar san'atga, yakkakurashlarga va taekvondoga ta'lim komponenti uchungina borishini hisobga olsak, o'rgatishni umumiy jismoniy tayyorgarlikdan boshlash maqsadga muvofiq emas, chunki ko'pchilik bolalar bunday taekvondoga bo'lgan qiziqishlarini tezda yo'qotishadi va seksiyaga bormay qo'yishadi [3, 5]. Ushbu yoshda harakatlarni rivojlantirishning maktabdagi kamchiliklarini kompensatsiya qiluvchi tadbir sifatida, umumiy rivojlantiruvchi tayyorgarlik to'g'risida ham yuritish maqsadga muvofiq



bo'lar edi. Bunda, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar taekvondo usullaridan ustuvor bo'lmashligi kerak, chunki bu, sport taekvondosi bo'yicha dasturlarda mavjud.

1-jadval: Yosh taekvondochilarni tayyorlash makrosiklidagi mashg'ulot jarayoni vositalarining nisbatlari (%)

Makrosiklning tuzilishi			Mashg'ulot vositalari			
Davr	Bosqich	Mikrosikl turi	Xarakatli o'yinlar		Jismoniy mashqlar	
			Xususiy yo'nalish	Majmuaviy yo'nalish	Umumiy tayyorlov	Maxsus tayyorlov
TAYYORLOV	UMUMIY TAYYORLOV	tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tiklanuvchi	-	-	-	-
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
		tortuvchi	12	10	45	33
	MAXSUS TAYYORLOV	zarbali	20	25	33	22
		zarbali	20	25	33	22
		zarbali	20	25	33	22
		tiklanuvchi	-	-	53	47
		zarbali	20	25	33	22
		zarbali	20	25	33	22
		zarbali	20	25	33	22
		tiklanuvchi	-	-	53	47
MUSOBAQA	zarbali		10	35	22	33
	zarbali		10	35	22	33
	tiklanuvchi		-	-	57	47
	tortuvchi		10	35	22	33
	tortuvchi		10	35	22	33
	tortuvchi		10	35	22	33
	tortuvchi		10	35	22	33
	tortuvchi		10	35	22	33
	Musobaqa		-	80	10	10
	Musobaqa		-	80	10	10

Maxsus jismoniy tayyorgarlikni taekvondoning o'rtacha strukturaviy usullarini o'zlashtirgunga kadar boshlash mumkin emas, chunki MJT mashqlari tezkorlikni, kuchni va chidamlilikni taekvondoning texnik usullarini bajarish jarayonida oshirish uchun qo'llaniladi.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida o'qitish, bizning nazarimizda, birinchi navbatda, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishdan rivojlantirishga ko'maklashadi. Formal majmuani bajarishni meditatsiyaning - harakat meditatsiyasining bir turi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Taekvondoning mazkur bo'limi, odatda dastlabki tayyorgarlik deb ataladigan guruhlarda qo'llaniladi, o'ziga xos "harakatlar maktabi" hisoblanadi ^[2].



Undan tashqari, formal mashqlar umumiy rivojlantirish va sog'lomlashtirish maqsadida qo'llaniladi, chunki ular to'g'ri bajarilganda tayanch-harakat apparati, yurak-tomir, nafas va asab tizimlari ijobiy yuklama oladi. Bu, yuklamani engil dozashtirish mumkinligi va mashqlar murakkabligi darajalari bo'yicha guruhlashtirilganligi bilan belgilanadi.


Kompleks tayyorgarlikning, musobaqa faoliyatini modellashtiruvchi modifikatsiyalangan harakatli o'yinlarning asosiy usuli sifatida musobaqalar o'rniga kompleks tayyorgarlikni qo'llash, yosh taekvondochilarning jismoniy va psixologik holatlariga zarar keltirmasdan, ularning kompleks tayyorgarliklarini maksimal mumkin bo'lgan darajasini shakllantirishga imkon berishi to'g'risidagi taxmindan kelib chiqqan holda, biz tomondan, kompleks tayyorgarlikni shakllantirilishi uchun ikkita asosiy yondashuv amalga oshirildi.

- Birinchi yondashuv - tahliliy:
- Ikkinchi yondashuv – kompleksli:


Trenirovka jarayonining vositasi sifatida quyidagilar qo'llanildi: sportning har xil turlaridagi mashqlar – umumiy tayyorgarlik mashqlari, taekvondo mashqlari – maxsus tayyorgarlik mashqlari, majmuaviy va xususiy yo'nalgan harakat o'yinlari (texnik-jismoniy; texnik-taktik; taktik- jismoniy (1,2,3 rasmlar).



1-rasm: Tayyorgarlik bosqichining umumiy tayyorgarlik etapidagi trenirovka jarayonining nisbati



2-rasm: Tayyorgarlik bosqichining maxsus tayyorgarlik etapida trenirovka jarayonining nisbati



3-рasm: Musobaqa davrida mashg'ulot vositalarining nisbatlari

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdiqlanadi. Qo'llanilgan tadqiqot uslublari majmuasi tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mos keladi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi va talqin etilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchliligi, aniq hamda tadqiqot va pedagogik uslublarning qo'llanilganligi bilan ta'minlangan. Tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

Yosh taekvondochilarni dastlabki tayyorgarlik jarayonida trenirovka mashg'ulotini tuzishda harakatli o'yinlar, asosan kuch, koordinatsion va tezkorlik qobiliyatiga ta'sir qiladi, mashg'ulotning birinchi va ikkinchi qismlarida rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Birinchi navbatda moslashuvchanlikni rivojlantirish darajasiga ta'sir qiladigan o'yinlar, shuningdek, charchoq paydo bo'lishidan oldin, agar iloji bo'lsa, birinchi qismning oxirida yoki ikkinchisida rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Buning sababi, taekvondo sportchilariga texnikalarni samarali bajarish uchun yuqori darajadagi moslashuvchanlikni rivojlantirish kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh taekvondochilarni dastlabki tayyorgarlik jarayonida trenirovka mashg'ulotini tuzishda harakatli o'yinlar, asosan kuch, koordinatsion va tezkorlik qobiliyatiga ta'sir qiladi, mashg'ulotning birinchi va ikkinchi qismlarida rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Birinchi navbatda moslashuvchanlikni rivojlantirish darajasiga ta'sir qiladigan o'yinlar, shuningdek, charchoq paydo bo'lishidan oldin, agar iloji bo'lsa, birinchi qismning oxirida yoki ikkinchisida rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Buning sababi, taekvondo sportchilariga texnikalarni samarali bajarish uchun yuqori darajadagi moslashuvchanlikni rivojlantirish kerak.

Taekvondo sportchilarining musobaqa faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan mashqlar paytida paydo bo'lgan charchoq qanchalik kuchliroq bo'lsa, faol egiluvchanlik darajasi shunchalik past bo'ladi, passivlik esa shunchalik yuqori bo'ladi. Mashg'ulotning ikkinchi qismida asosan chidamlilik rivojlanish darajasiga ta'sir qiladigan o'yinlardan foydalanish kerak, chunki birinchi qism muammolarini hal qilish natijasida paydo bo'ladigan charchoq mashg'ulot vaqtidan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahrir). -T. "Xalq So'zi", 5 sentyabr 2015 yil;
2. Михайлова М. В. Проблемы использования игровой деятельности старших дошкольников для формирования психологической готовности к обучению в школе / М. В. Михайлова // Психологические основы обучения и воспитания: материалы 26-й научной конференции / под ред. А. Н. Николаева / СПбГАФК им. П. Ф. Лесгафта. - 2000. - С. 85-88 с.



3. Мунтян В. С. Оптимизация специальной подготовки, к рукопашному бою: Автореф. дис... канд. наук. - Х: ХДАФК, 2006. - 20 с.
4. Озолин, Н.Г. Современная система спортивной тренировки / Н.Г. Озолин. М.: Физкультура и спорт, 1970. 488 с.
5. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - К.: "Олимпийская литература". 1997. - 584с.
6. Сафонкин С. Н. Таеквон-до / С. Н. Сафонкин; СПб ГАФК им. П; Ф. Лесгафта. - СПб., 2001. - 181 с.
7. Джангаров, Т.Т. Психологическая характеристика видов спорта и соревновательных упражнений //Психология физического воспитания и спорта. М.: Физкультура и спорт, 1979.С.34-41.
8. Донской, Д.Д., Затсиорский В.М. Биомеханика. М.: Физкультура и спорт, 1979. 258 с.
9. Кудин В.В., Агеев В.В. Теория и методика таеквондо / программа для слушателей Высшей школы тренеров ГСОЛИВКа (Курс специализации). - М., 1992.-29 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.